O’ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYANING RIVOJLANISHIDA STATISTIKANING O’RNI

Hasanova Madina Zarifjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya” fakulteti 2-bosqich talabasi
*Ilmiy rahbar:***Shakirova Nigora Axralovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Statistika kafedrasi PhD, dotsenti
Elektron pochta: shakirova0130@gmail.com
Orcid: 0009-0006-5025-4764

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish jarayonini baholashda statistikaning o‘rni yoritiladi. Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, to‘lov terminallari va elektron pul tizimlari kabi statistik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlardan foydalanish raqamli moliya bozoridagi o‘zgarishlarni aniqlash, rivojlanish tendensiyalarini baholash va kelgusidagi yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida raqamli moliyaning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.*

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish jarayonini baholashda statistikaning o‘rni yoritiladi. Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, to‘lov terminallari va elektron pul tizimlari kabi statistik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlardan foydalanish raqamli moliya bozoridagi o‘zgarishlarni aniqlash, rivojlanish tendensiyalarini baholash va kelgusidagi yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida raqamli moliyaning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: *raqamli moliya, statistika, fintech, bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy statistika.*

KIRISH.

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, xususan, moliya sektorida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an’anaviy moliyaviy xizmatlar asta-sekin raqamli shaklga o‘tmoqda. Mobil banking, internet-banking, elektron to‘lovlar, bank kartalari, elektron hamyonlar, QR-to‘lovlar va boshqa fintech xizmatlarining kengayishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu sababli raqamli moliyaning rivojlanish jarayonlarini muntazam va aniq statistik ma’lumotlar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli moliyaning rivojlanishini oddiy kuzatish orqali to‘liq baholab bo‘lmaydi. Ushbu jarayonni ilmiy jihatdan o‘rganish uchun aniq statistik ko‘rsatkichlar, ularning dinamikasi va o‘zgarish sur’atlarini tahlil qilish talab

etiladi. Statistik ma’lumotlar orqali bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, bank kartalari miqdori, elektron to‘lovlar hajmi, to‘lov terminallari va bankomatlar soni, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin. Natijada raqamli moliya bozorining real holati va uning rivojlanish tendensiyalariga ilmiy baho berish imkoniyati yaratiladi.
O‘zbekistonda ham moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raqamli moliya va to‘lov tizimlariga oid ko‘plab statistik ko‘rsatkichlarni muntazam e’lon qilib boradi. Markaziy bankning statistik bazasida pul-kredit va moliyaviy statistika, bank tizimi faoliyati, to‘lov tizimi ko‘rsatkichlari hamda boshqa moliyaviy ma’lumotlar alohida yuritiladi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi ushbu jarayonning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Masalan, Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatida Xalq bankida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 8 199 028 nafarni, O‘zbekiston sanoat-qurilish bankida 5 630 543 nafarni, Ipoteka-bankda 4 607 014 nafarni va Agrobankda 3 921 179 nafarni tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarishini statistik usullar yordamida o‘rganish raqamli moliyaga bo‘lgan talabning rivojlanishini baholash imkonini beradi. Jumladan, 2025-yil 1-oktabr holatiga Xalq bankida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 8 194 772 nafarga, O‘zbekiston sanoat-qurilish bankida 6 007 036 nafarga, Ipoteka-bankda 4 741 046 nafarga va Agrobankda 4 275 420 nafarga yetgan. Statistik tahlilning yana bir muhim jihati shundaki, u raqamli moliya rivojlanishidagi hududiy, banklararo va vaqt bo‘yicha farqlarni aniqlash imkonini beradi. Statistik ko‘rsatkichlarni taqqoslash orqali qaysi turdagi raqamli xizmatlarga talab yuqoriligi, foydalanuvchilar sonining qanday sur’atda o‘zgarayotgani va moliyaviy infratuzilmaning qay darajada kengayayotganini aniqlash mumkin.

Shuningdek, statistik ma’lumotlar davlatning moliyaviy siyosatini shakllantirish, banklarning raqamli xizmatlarini takomillashtirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Ishonchli statistik ma’lumotlar asosida qabul qilingan qarorlar raqamli moliya sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanishida statistikaning o‘rnini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanish holatini statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va statistik ma’lumotlarning moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sifatida raqamli moliya tushunchasini ochib berish, uning asosiy statistik ko‘rsatkichlarini aniqlash, O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, elektron to‘lovlar va bank kartalari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni o‘rganish hamda raqamli moliya rivojlanishida statistik

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Raqamli moliya va uning rivojlanishini statistik jihatdan baholash masalasi xalqaro va milliy iqtisodiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda asosan raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi, moliyaviy inklyuziya, fintech texnologiyalari, elektron to‘lovlar va ularni statistik ko‘rsatkichlar orqali baholash masalalariga e’tibor qaratilgan. Jahon bankining raqamli moliyaviy xizmatlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar moliyaviy xizmatlarning narxini kamaytirish, operatsiyalar tezligi va shaffofligini oshirish hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berishi ta’kidlangan. Jahon banki raqamli moliyani baholashda to‘lovlar, hisobvaraqlarga egalik qilish va ulardan foydalanish kabi ko‘rsatkichlarni muhim indikatorlar sifatida ko‘rib chiqadi.

Jahon bankining Global Findex ma’lumotlar bazasi moliyaviy xizmatlardan foydalanishni talab tomoni — ya’ni aholining real foydalanish tajribasi asosida o‘rganishga imkon beradi. 2025-yilgi Global Findex ma’lumotlari 141 ta iqtisodiyotdagi taxminan 148 ming nafar katta yoshli respondentlar so‘rovi asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda moliyaviy hisobvaraqlar, to‘lovlar, jamg‘arma, qarz olish, mobil telefon va internetdan foydalanish hamda raqamli xavfsizlik ko‘rsatkichlari qamrab olingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot davomida quyidagi statistik ko‘rsatkichlar tanlab olindi:

- masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni;
- bank kartalari soni;
- POS-terminallar soni;
- bankomatlar soni;
- elektron to‘lovlar hajmi;
- elektron pul tizimlari;
- raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlari.

Tadqiqotda statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamik qatorlar, nisbiy miqdorlar va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda raqamli moliyaga oid statistik ma’lumotlar yig‘ildi va tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda tanlangan ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi o‘rganildi. Uchinchi bosqichda turli banklar va davrlar ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi. Raqamli moliyaning o‘sish sur’atini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

O‘sish sur’ati = (Joriy davr ko‘rsatkichi / Bazis davr ko‘rsatkichi) × 100

Ko‘rsatkichning qanchaga o‘zgarganini aniqlash uchun esa:

O‘zgarish = Joriy davr ko‘rsatkichi − Bazis davr ko‘rsatkichi formulasidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ushbu tadqiqotda bank kartalari soni, POS-terminallar, bankomat va infokiosklar hamda to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan tushumlar asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida mamlakatda muomaladagi bank kartalari soni 68 267 436 tani, o‘rnatilgan POS-terminallar 430 762 tani, bankomat va infokiosklar 40 090 tani tashkil etgan. 2025-yil davomida POS-terminallar orqali amalga oshirilgan tushumlar jami 460 259 619 mln so‘m,

ya’ni qariyb 460,3 trln so‘m bo‘lgan. Jadvalma’lumotlari banklar o‘rtasida raqamli moliya infratuzilmasining hajmi bir xil emasligini ko‘rsatadi. Masalan, Xalq bankida 10 771 015 ta bank kartasi va 3 134 ta bankomat hamda infokiosk mavjud bo‘lgan. Agrobankdagi bank kartalari soni 6 583 574 ta, Ipoteka-bankda 5 358 308 ta, Milliy bankda esa 4 288 469 tani tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar statistik kuzatuv orqali raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini baholash imkonini beradi. POS-terminal infratuzilmasi bo‘yicha Hamkorbank 57 383 ta terminal bilan jadvaldagi banklar orasida yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Milliy bankda 40 764 ta, Xalq bankida 33 134 ta, Agrobankda 32 249 ta va Ipoteka-bankda 30 937 ta POS-terminal mavjud bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlar raqamli to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaning banklar kesimidagi holatini statistik jihatdan solishtirish imkonini beradi. 2025-yil davomida POS-terminallar orqali tushgan mablag‘lar ham raqamli to‘lovlar faolligini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Jadvaldagi banklar orasida Aloqabankda ushbu ko‘rsatkich 54 057 468 mln so‘m, Milliy bankda 30 207 062 mln so‘m, Ipoteka-bankda 28 849 786 mln so‘m, Mikrokreditbankda 26 213 150 mln so‘m va Kapitalbankda 21 042 989 mln so‘mni tashkil etgan. Umumiy tizim bo‘yicha esa POS-terminallar orqali tushum 460 259 619 mln so‘mga yetgan. Statistik tahlil natijasida raqamli moliyaning rivojlanishini faqat bank kartalari soni bilan baholash yetarli emasligi ko‘rinadi. Chunki bank kartalarining ko‘pligi xizmatlardan real foydalanish hajmini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli kartalar soni bilan bir qatorda POS-terminallar, bankomatlar va elektron to‘lovlar hajmini ham birgalikda tahlil qilish zarur.

(1-rasm)

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYA INFRASTRUKTURASI: 2025-YIL YAKUNI

Tijorat banki	Bank kartalari, dona	POS-terminal, dona	Bankomat va infokiosk, dona	POS orqali tushum, mln so‘m
Milliy bank	4 288 469	40 764	985	30 207 062
O‘zsanoatqurilishbanki	2 901 615	29 913	680	15 188 391
Agrobank	6 583 574	32 249	1 966	20 138 590
Mikrokreditbank	1 959 819	19 829	824	26 213 150
Xalq banki	10 771 015	33 134	3 134	13 525 129
Garant bank	413 212	5 879	255	1 321 823
Biznesni rivojlantirish banki	952 883	17 200	654	6 474 559
Turonbank	542 490	12 626	426	6 423 484
Hamkorbank	3 836 193	57 383	753	19 727 296
Asakabank	1 478 096	15 555	277	14 558 104
Ipak Yo‘li banki	3 605 399	24 347	1 054	15 185 107
Trastbank	1 211 210	17 613	602	16 278 912
Aloqabank	2 747 515	14 580	250	54 057 468
Ipoteka-bank	5 358 308	30 937	880	28 849 786
Kapitalbank	864 259	13 318	1 478	21 042 989
JAMI	**68 267 436**	**430 762**	**40 090**	**460 259 619**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil 1-yanvar holati.

XULOSA

.O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanishi moliyaviy xizmatlarning ko‘rsatish shakli va infratuzilmasida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bank kartalari, POS-terminallar, bankomat va infokiosklar, masofaviy bank xizmatlari hamda elektron to‘lovlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarning muntazam shakllantirilishi mamlakatda raqamli moliya jarayonlarini miqdoriy jihatdan baholash imkonini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu ko‘rsatkichlarni muntazam e’lon qilib boradi.
Tahlil natijalariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida O‘zbekistonda 68 milliondan ortiq bank kartasi, 430 mingdan ortiq POS-terminal hamda 40 mingdan ortiq bankomat va infokiosk mavjudligi raqamli to‘lov infratuzilmasining keng ko‘lamga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday ko‘rsatkichlarni statistik jihatdan muntazam kuzatib borish raqamli moliyaning rivojlanish sur’atlarini aniqlash, banklar o‘rtasidagi tafovutlarni baholash va moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini o‘rganish uchun muhim asos yaratadi. Tadqiqot davomida statistikaning raqamli moliyadagi o‘rni faqat ma’lumotlarni yig‘ish bilan cheklanmasligi aniqlandi. Statistik ma’lumotlar yordamida vaqt bo‘yicha dinamika, o‘sish sur’atlari, banklar va xizmat turlari o‘rtasidagi farqlar hamda raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayish darajasini aniqlash mumkin. Shu sababli statistik tahlil banklar va moliya institutlarining boshqaruv qarorlarini asoslashda ham amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba ham raqamli moliyaviy xizmatlarni baholashda statistik ma’lumotlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jahon bankining Global Findex bazasi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishini, raqamli to‘lovlar, hisobvaraqlar, jamg‘arma va qarz olish kabi ko‘rsatkichlarni o‘rganishga imkon beradi. XVJning Financial Access Survey bazasi esa moliyaviy xizmatlarning mavjudligi va ulardan foydalanish bo‘yicha yillik statistik ma’lumotlarni shakllantiradi.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda raqamli moliyani yanada samarali statistik baholash uchun bank kartalari va to‘lovlar soni bilan bir qatorda, raqamli xizmatlardan faol foydalanuvchilar, mobil banking va internet-banking operatsiyalari, elektron hamyonlar, hududlar kesimidagi foydalanish darajasi hamda aholining turli guruhlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni muntazam shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday statistik bazaning kengayishi raqamli moliyaning real holatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Umuman olganda, statistika O‘zbekistonda raqamli moliyaning rivojlanishini o‘lchash, tahlil qilish, taqqoslash va istiqboldagi yo‘nalishlarni belgilashning muhim vositasidir. Ishonchli va muntazam statistik ma’lumotlar raqamli moliyaviy xizmatlarning samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qarorlarni ilmiy asoslash uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan raqamli moliyaning keyingi rivojlanishi statistik kuzatuv va tahlil tizimining takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

2.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari. — Toshkent: Markaziy bank rasmiy statistik ma’lumotlari.

3.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimining ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. — Toshkent: Markaziy bank, 2025–2026-yillar.

4.World Bank. The Global Findex Database 2025: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. — Washington, DC: World Bank, 2025.

5.World Bank. The Global Findex Database 2025. — World Bank official database.

6.International Monetary Fund. Financial Access Survey (FAS). — IMF Data, annual financial access and usage statistics.

7.International Monetary Fund. IMF Releases the 2025 Financial Access Survey Results. — Washington, DC, 29 October 2025.

8.International Monetary Fund. Financial Access Survey: Fintech, a Catalyst for Financial Services Access, Innovation and Growth. — IMF, 2025.

9.Tok, Y. W., Heng, D. Fintech: Financial Inclusion or Exclusion? — International Monetary Fund Working Paper, 2022.

10.Cevik, S. Promise Unkept: Fintech and Financial Inclusion. — International Monetary Fund Working Paper, 2024.

11.Espinosa-Vega, M. A., Shirono, K., Villanova, S., Das, U. S., Fan, Y. Measuring Financial Access: 10 Years of the IMF Financial Access Survey. — IMF, 2020.

12.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten: 2025-yil. — Toshkent: Markaziy bank, 2025.